ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2024/ № 11

Termiz – 2024

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.11.2024
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
www.philologicalresearch.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, *filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)*
Shoxista Maxmaraimova, *filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)*
O'ral Xoliyorov, *f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)*
Olmos Ulviy Binnatova, *f.f.d., professor (Ozarbayjon)*
Karl Rayxl, *f.f.d., professor (Germaniya)*
Vali Savash yelok, *f.f.d., professor (Turkiya)*
Dorota Silviya, *f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)*
Muslihiddin Muhiddinov, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Ibodulla Mirzayev, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Abdi Mamatov *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Suyun Karimov *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Muhammadxon Hakimov, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Nafas Shodmonov *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Dilmurod Quronov, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Murodqosim Abdiyev, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Baxtiyor Mengliyev, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Normat Yo'ldoshev, *f.f.d., dotsent (O'zbekiston)*
Abdulla Xudoyqulov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Bobonazar Murtazayev, *f.f.n., dotsent (O'zbekiston)*
Asqar Eshmo'minov, *f.f.d., dotsent (O'zbekiston)*
Obidjon Shofiyev, *f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)*
Zafar Umurqulov, *f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O'zbekiston)*
Nurali Amonturdiyev, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Hakim Ahmedov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Ahad Shukurov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Eshnazar Jabborov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Abdumurod Arslonov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Sirojiddin Turdimurodov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Umida Raximova, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Gulchehra Begmatova, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Nargis Qurbonazarova, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Muyassar Xolova, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Shoira Omonturdiyeva, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Sherzod Turdiqulov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Zaynura Qodirova, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Humayun Nadim Muhammad, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Dilrabo Ergasheva, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.11.2024
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100
Цена договорная
Заказ: 155
Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
www.philologicalresearch.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, *доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)*
Шохиста Махмараимова, *доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)*
Урал Холияров, *ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)*
Олмос Улвий Биннатова, *д.ф.н., профессор (Азербайджан)*
Карл Райхл, *д.ф.н., профессор (Германия)*
Вали Саваш Елок, *д.ф.н., профессор (Турция)*
Дорота Сильвия, *PhD, доцент (Польша)*
Муслихиддин Мухиддинов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Ибодулла Мирзаев, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Абди Маматов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Суюн Каримов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Мухаммадхон Хакимов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Нафас Шодмонов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Дилмурод Куронов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Мурадкасим Абдиев, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Бахтиёр Менглиев, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Нормат Юлдашев, *д.ф.н., доцент (Узбекистан)*
Абдулла Худайкулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Бобоназар Муртазаев, *ф.ф.н., доцент (Узбекистан)*
Аскар Эшмуминов, *д.ф.н., доцент (Узбекистан)*
Обиджон Шофиев, *д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)*
Зафар Умуркулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Нурали Амонтурдиев, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Хаким Ахмедов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Ахад Шукуров, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Эшназар Джаббаров, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Абдумурод Арслонов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Сирожиддин Турдимуродов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Умида Рахимова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Гульчехра Бегматова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Наргис Курбаназарова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Муяссар Холова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Шаира Амонтурдиева, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Шерзад Турдикулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Зайнура Кадирова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Хумаюн Надим Мухаммад, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Дильрабо Эргашева, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President`s Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.11.2024
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94
Offset printing. Offset paper
Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155

Printed at the
«Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
www.philologicalresearch.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, *doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)*
Shohista Makhmaraimova, *doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)*
Ural Kholiyorov, *PhD, associate professor (Uzbekistan)*
Olmos Ulviy Binnatova, *doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)*
Karl Rayxl, *doct.of philol. sciences, professor (Germany)*
Vali Salvash Elok, *doct. of philol. sciences, professor (Turkey)*
Dorota Silvia, *PhD, associate professor (Poland)*
Muslihiddin Mukhiddinov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Ibodulla Mirzaev, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Abdi Mmatov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Suyun Karimov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Muhammadkhon Khakimov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Nafas Shodmonov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Dilmurod Kuronov, *doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Muradkasim Abdiyev, *doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Bakhtiyor Mengliev, *doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Normat Yuldashev, *doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Abdulla Khudaykulov, *PhD (Uzbekistan)*
Bobonazar Murtazaev, *cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Askar Eshmuminov, *doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Obidjon Shofiev, *PhD, associate professor (Uzbekistan)*
Zafar Umurkulov, *PhD (Uzbekistan)*
Nurali Amonturdiev, *PhD (Uzbekistan)*
Hakim Akhmedov, *PhD (Uzbekistan)*
Ahad Shukurov, *PhD (Uzbekistan)*
Eshnazar Jabbarov, *PhD (Uzbekistan)*
Abdumurod Arslonov, *PhD (Uzbekistan)*
Sirojiddin Turdimurodov, *PhD (Uzbekistan)*
Umida Rakhimova, *PhD (Uzbekistan)*
Gulchekhra Begmatova, *PhD (Uzbekistan)*
Nargis Kurbanazarova, *PhD (Uzbekistan)*
Muyassar Kholova, *PhD (Uzbekistan)*
Shoira Omonturdiyeva, *PhD (Uzbekistan)*
Sherzod Turdikulov, *PhD (Uzbekistan)*
Zaynura Kadirova, *PhD (Uzbekistan)*
Humayun Nadim Muhammad, *PhD (Uzbekistan)*
Dilrabo Ergashova, *PhD (Uzbekistan)*

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

AMANOV ABDIJABBOR SATTAROVICH
Murakkab sintaktik tuzilmalar haqida 7

УСМОНОВА ШАҲОДАТ
Газета дискурсида таржима масаласи: Трансформацион таҳлил 11

XOLNAZAROV UMID ERKINOVICH
Tog‘ay Murod uslubiy bayonida antropomorf metaforalarning voqelanishi 16

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
Tilning mohiyati va vazifalarini yuzaga keltirishda uslubiyatning o‘rni 19

ИБАТОВА АМИРА ШАВКАТОВНА
Лексика – тилдаги барча сўзларнинг йиғиндиси 23

NABIYEVA RUSHANA JAMOL QIZI
O‘zbek tilidagi yangi oziq-ovqat o‘zlashmalarining leksikografik tavsifi masalalari:
Muammo va vazifalar 26

NABIYEVA PARVINA AKBARJANOVNA
Jahon tilshunosligida tezaurus tushunchasi va uning tadqiqi 30

MUXAMMADIYEV NODIR RUSTAMZODA
Qashqadaryo viloyati o‘zbek shevalariga fors-tojik
va arab tillaridan o‘zlashgan so‘zlar tahlili 35

ASATULLAYEVA DILNAVOZ JONDULLAYEVNA
Morfonologik hodisalar va ularning Buxoro viloyati o‘g‘uz shevalarida uchrashi 39

ABDULLAJONOVA MADINA TO‘LANBOY QIZI
Yozma nutq shakllanishi va rivojlanishining psixolingvistik tahlili 42

NAZARMATOVA KUMUSH FARHODOVNA
O‘zbek tilida komplimentlarning lingvopragmatik tahlili
(O‘. Hoshimovning «Ikki eshik orasi» asari misolida) 46

MUHSINJONOVA SHIRINOY ASLIDDIN QIZI
«Devonu lug‘otit-turk» asarida qo‘llangan taom nomlarining qiyosiy tadqiqi 50

MUKUMOV MAKHMUD KHUDAYBERDIEVICH
Lexical composition of scientific prose 53

НАТАЛЬЯ БАЗАРОВНА РАДЖАПОВА
Гендерная лексика в туркменском языке 56

МУНДАРИЖА

ТОЙЧИЕВА НАСИБАХОН СУРАНБАЕВНА
Сходства и различия в процессе формирования терминологии
бытовой лексики в узбекском и русском языках 58

BOBOMUROTOV FARRUKH,
DAVLYATOVA ELVIRA MURATOVNA
The problems of reconstruction aphoristic prose of e. M. Remarque in uzbek translations..... 64

НАЗАРОВА МАНЗУРА НАСРУЛЛАЕВНА,
БАХТИЁРОВ ШОХЖАХОН
Роль речи в развитии мышления..... 68

QAHRAMONOV ISLOM BOTIR O‘G‘LI
DAVLYATOVA ELVIRA MURADOVNA
The problems of thematic classification of
military terms in english and uzbek languages..... 71

ADABIYOTSHUNOSLIK

АБДУЛЛАЕВ МУҲАММАД ҲАМЗАЕВИЧ
Убайдий ва шайх Саъдий..... 75

МУСТАФОҚУЛОВ РЎЗИҚУЛ БОЙНАЗАРОВИЧ
Мангу барҳаёт сиймо..... 78

ТОИРОВА ДИЛФУЗА ФАЙЗУЛЛАЕВНА
Эстетика запада и востока в творчестве Гюстава Флобера..... 83

TAJIBAYEVA DILFUZA ERKINOVNA
Poetik timsol yaratishda oq rang tasviri 86

МУСИНОВА ЗЕБО ТУРАБОВНА
Разоблачение роковых последствий в историческом
Романе эжена сю «жан кавалье» 88

MANSUROVA UMIDAXON IBROHIMOVNA
Badiiy asarda biografik tasvirning o‘rni 92

BOYMURATOVA NARGIZA BOZORBOYEVNA
Tasavvufiy timsollar va she’riyat 96

NAZAROVA NAMUNA ABDUMAJITOVNA
Sirojiddin Sayyid ijodidan bir g‘azal tahlili..... 98

Rezyume. Maktab yoshigacha bo‘lgan bolalarda yozish qobiliyatining shakllanishi va rivojlanish jarayonini o‘rganish yozma nutq faoliyatining psixofiziologik, psixolingvistik va neyrolingvistik asoslarini tadqiq etishda, shuningdek, yozma nutq muammolarini erta bosqichda aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada maktab yoshigacha bo‘lgan bolalarda yozish qobiliyatining shakllanishi va rivojlanishi, yozish malakasini egallash va yozma nutqning faoliyat darajasiga ko‘tarilishi xususida so‘z boradi. Maktab yoshigacha va boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yozish jarayonini kuzatish orqali chiqarilgan xulosalar taqdim etiladi.

Resume. The study of the formation and development of writing skills in preschool children is of great importance in studying the psychophysiological, psycholinguistic and neurolinguistic foundations of written speech activity, as well as in identifying problems with written speech at an early stage. This article discusses the formation and development of writing skills in preschool children, the complex processes and stages leading to the acquisition of writing skills and the advancement of written speech to the level of activity. The conclusions drawn from observing the writing process of preschool and primary school students are presented.

Резюме. Изучение процесса формирования и развития умения писать у детей дошкольного возраста имеет важное значение для исследования психофизиологических, психолингвистических и нейролингвистических основ письменной речевой деятельности, а также выявления проблем письменной речи на раннем этапе. В данной статье рассматривается формирование и развитие навыков письма у детей дошкольного возраста, приобретение навыков письма и подъём письменной речи на уровень активности. Представлены выводы, полученные при наблюдении за процессом письма учащихся дошкольного и младшего школьного возраста.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2024; 11
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

O‘ZBEK TILIDA KOMPLIMENTLARNING LINGVOPRAGMATIK TAHLILI (O‘. HOSHIMOVNING «IKKI ESHIK ORASI» ASARI MISOLIDA)

Nazarmatova Kumush Farhodovna,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti marjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasi tayanch doktoranti

Har bir til o‘z so‘zlashuvchilarining madaniyati, qadriyatlari hamda tajribalarini o‘zi bilan olib yuruvchi noyob kema kabidir. Tillarni chuqur tadqiq etish nafaqat ularning muloqot strukturalarining nozik estetikasini yoritishda, balki insonlarning dunyoni qay tarzda idrok etishi, o‘zaro aloqa uslublarining xilma-xilligini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tillarni o‘rganish insoniyatning umumiy chegaralarini bog‘lab turuvchi ko‘priklarni bunyod etishga, madaniyatlararo hamjihatlik, totuvlikni ta’minlashga yordam beradi.

So‘ngi yillarda inson va til o‘rtasidagi munosabat, shaxslararo muloqot, turli xalqlarga xos bo‘lgan nutqiy munosabatlar, ular orasidagi tafovutlar, o‘xshashliklar hamda o‘ziga xos jihatlari, madaniyatning muloqotga ta’siri jahon tilshunos olimlarining e’tiborini tortmoqda, ularni o‘rganish orqali xalqlar o‘rtasida hamjihatlik, do‘stlik va barqarorlikni ta’minlashga harakat qilinmoqda. Bunday tadqiqotlarning aksariyati turli millatlarga xos bo‘lgan nutqiy etiket shakllarini o‘rganish bilan bog‘liqdir.

Lingvopragmatika – bu tilshunoslikning bir sohasi bo‘lib, u tilning real hayotiy muloqot vaziyatlarida qanday qo‘llanilishini o‘rganadi. Bu soha til tuzilmalari va ularning kommunikativ jarayondagi qo‘llanilish uslublarini tadqiq etadi. Lingvopragmatika tilshunos-

lik va pragmatika, ya'ni til va uning kontekstda qo'llanilishi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganadi. Lingvopragmatikada asosiy e'tibor gapiruvchi va tinglovchilar tilni ma'lum kommunikativ vaziyatlarda qanday ishlatishi va tushunishiga qaratiladi.

Lingvopragmatika sohasidagi asosiy tadqiqotchilardan biri J.L.Ostin bo'lib, u o'zining «How to Do Things with Words» kitobida fanga nutq aktlari tushunchasini kiritdi[1]. U gaplar faqatgina ma'lumot yetkazish uchun emas, balki turli amaliy harakatlarni bajarish uchun ham ishlatilishini ta'kidlagan. Uning g'oyalari keyinchalik John Searle tomonidan rivojlantirilgan, u nutq aktlarini va turli xil gaplar muloqotda qanday ishlashini chuqurroq tahlil qilgan[2].

Nutqiy etiket – so'zlovchining tinglovchiga ma'lum bir ma'noni til orqali ifodalash uchun qilgan eng yaxshi namunasidir[3]. Darhaqiqat, so'zlovchi biron ma'no ifodalashidan oldin tinglovchini, vaziyatni, muhitni va vaqtni hisobga oladi[4]. Nutq aktlari shaxslararo muloqotdagi turli vaziyatlarni o'z chiga oladi, jumladan, salomlashish, kechirim so'rash, iltimos qilish, taklif, e'tiroz, kompliment kabi nutqiy etiket shakllarni o'rganish va ulardan o'rinli foydalana bilish shaxslararo munosabatlarni yaxshilashga va mustahkamlashga yordam beradi.

Komplimentlar – do'stlik ifodasi, ijtimoiy aloqalarni mustahkamlovchi ijobiy nutq aktlaridan biri[5]. P. Brown va S. Levinson fikricha, komplimentlar rozilik, qo'llab-quvvatlash hamda so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi hamfikrlilikni ifodalaydi. Ular madaniy qadriyatlarni aks ettiradi va lingvistik o'zaro aloqalarda muhim ahamiyatga ega. Komplimentlarning funksiyalarini tushunish va ularni o'rinli qo'llay bilish insonlar bilan samarali muloqot qilish uchun hamda madaniyatlararo tushunmovchiliklarning oldini olish uchun muhimdir[6].

«Kompliment» so'zi o'zbek tilida turli muqobil tarjimalarga ega bo'lib, aksariyat tarjima lug'atlarida, shuningdek, internet tarjima manbalarida «iltifot», «maqtov» yoki «xushomad» deya tarjima qilingan. Ammo shuni ta'kidlash joizki, bu so'zlar O'zbek tilining izohli lug'atiga ko'ra, qisman komplimentga o'xshash ma'nolarni ifodalasa-da, aniq bir xil tushunchalar emas. Bu tushunchalar boshqa millatlarda, jumladan, ingliz va rus tillarida boshqa-boshqa ma'nolarni ifoda etadi. Demak, o'zbek tilida ham ularni alohida tushuncha sifatida qabul qilishimiz kerak. Masalan, «xushomad» so'zi tilyog'lama maqtov, biron kishiga ta'magirlik bilan xizmat qilmoq kabi salbiy ma'nolarga ega. «Iltifot» so'zi ijobiy ma'no bildirsa-da, himmat, yaxshi munosabat, lutf qilish kabi ma'nolariga ega. Maqtab aytilgan so'z yoki gap esa «maqtov» deyiladi[7]. Maqtovlar kompliment sifatida qabul qilinishi mumkin, ammo bildirilgan barcha komplimentlar maqtovni ifoda etmasligi mumkin.

Komplimentlar ko'plab tilshunoslar tomonidan turli xil madaniy jamiyatda o'rganilgan. Jumladan, J. Manes va N. Volfson ingliz tilida komplimentlarni o'rgangan va ular so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi hamjihatlikni yaratish yoki mustahkamlash kabi ijtimoiy vazifani bajarishini, komplimentlarning lingvistik tuzilishi ijtimoiy finksiyalari bilan chambarchas bog'liqligini aniqlagan[8]. Forsiyzabon tilshunos olim Z. Yousefvand esa fors tilida so'zlashuvchilar komplimentlarga odatda kamtarlik bilan javob qaytarishini va bu ularning madaniyatiga chuqur singib ketganligini aniqlagan[9].

Shuningdek, fors tilida komplimentlarga javob qaytarishda jinsiy tafovut borligini, erkaklar e'tirofni rad etishga yoki kamaytirib ko'rsatishga, ayollar esa komplimentlarni qabul qilishga moyilroq ekanligini aniqlagan. Xuddi shunday natija J. Xolms tadqiqotida ham qayd etilgan bo'lib, unda ayollar erkaklarga qaraganda ko'proq kompliment bildirish xusiyatiga ega ekanligi aniqlangan[10]. F. Abduxalilova esa o'zbek va ingliz tillarida iltifotlarni solishtirish jarayonida, o'zbek xalqi ham xuddi inglizlardek asosan insonlarning odob-axloqiga nisbatan kompliment bildirishini aniqlagan[11].

Ushbu ilmiy maqolada sifat tahliliy metodidan foydalanilgan bo'lib, barcha misollar O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimovning «Ikki eshik orasi» romanidan olindi. O'tkir Hoshimov – mashxur yozuvchi, jurnalist, davlat arbobi. U o'zbek adabiyotining yirik namoyondalaridan biri bo'lib, asarlarida insoniylik,

[1] Austin J.L. How to do thing with words. Oxford:Oxford University Press, 1955.

[2] Searle J. R. A classification of illocutionary acts. Language in Society, 5(1), 1976. pp.1–23.

[3] Izar J., Nasution M. M., Afria R., Harianto N., Sholiha M. Expressive speech act in comic bintang emon's speech in social media about social distancing. Titian: Jurnal Ilmu Humaniora, 5(1), 2021. pp.148-158.

[4] Kartika D., Riza F. J. The speech acts of compliments among Japanese teenagers in Japanese Anime films. Leksema: Jurnal Bahasa Dan Sastra, 7(2), 2022. pp.85–94.

[5] Yousefvand Z. Study of compliment speech act realization patterns across gender in Persian. Semantic scholar, 2010.

[6] Brown P. & Levinson S. Politeness: Some Universals in Language Use. Cambridge, Inglaterra: Cambridge University Press, 1987.

[7] O'zbek tilining izohli lug'ati: 6 jildli. – Toshkent: Gafur Gulom nomidagi nashriyot - matbaa ijodiy uyi, 2022.

[8] Manes J., Wolfson N. The compliment as a social strategy. Paper in Linguistics. Vol. 13, №3, 1980.

[9] Yousefvand Z. Study of compliment speech act realization patterns across gender in Persian. Semantic scholar, 2010.

[10] Holmes, J. Paying Compliments: A Sex Preferential Positive Politeness Strategy. Journal of Pragmatics 12, 1988. – pp.445-465

[11] Abduxalilova F. Ingliz va o'zbek tilarida "iltifot" nutq aktlari va ularning o'xshash va farqli jihatlari. Miasto Przyszłości, 47, 2024. – 1069-1078 b.

ma’naviy qadriyatlar, milliy o‘zlik va hayot haqiqiqatlarini teran ifoda etgan. Uning «Ikki eshik orasi» asari adib ijodida alohida ahamiyat kasb etadi.

Asarda o‘zbek xalqining urush oldi, urush davri hamda urushdan keyingi, jami qirq yillik tarixi turli taqdirlar qismati orqali mahorat bilan tasvirlangan. Ushbu asar o‘ziga xos falsafiy mazmun va hayotiy teranlikka ega bo‘lib, unda inson ruhiyati va jamiyat muammolari chuqur yoritilgan.

Shuningdek, romanda o‘zbek xalqining dunyoqarashi, urf-odatlari, odob-axloqi va kundalik hayoti juda mahorat bilan tasvirlangan. Shu sababli ham ushbu asar o‘zbek tilida kompliment nutqiy etiketini tadqiq etishda munosib obyekt sifatida tanlandi.

1. **Komplimentlarning obyektiv tasnifi.**

Komplimentlar borasida ingliz, arab, ispan, xitoy tillarida ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib, Minesota Universiteti ilmiy tadqiqotlar markazi CARLA nutq aktlari veb-sayti ma’lumotlariga ko‘ra, komplimentlar uchta asosiy kategoriyaga bo‘linadi[1]:

- odamlarning tashqi qiyofasi/mulkini maqtash;
- professionallik, mahorat va qobilyat;
- xarakter xususiyatlarini e’tirof etish.

E.T. Sadikov esa o‘z tadqiqotida o‘zbek va ingliz tillarida komplimentlarni tashqi qiyofa, professional qobilyat, axloqiy fazilat, intellektual qobilyat va boshqa umumlashtiruvchi oltita turga ajratadi. Umumlashtiruvchi turga yosh, uy, ism, yashash tarzi kabi sifatlarni kirgizadi[2]. Bizningcha, yosh tashqi qiyofaning belgisi, uy va ism mulkiy egalik, yashash tarsi esa xulqiy fazilatga xos tushunchalar.

Yuqorida keltirilgan tadqiqotchilardan kabi «Ikki eshik orasi» asarini tahlil qilish jarayonida o‘zbek tilidagi komplimentlarning quyidagi turlarini aniqlandi:

1) inson tashqi qiyofasini e’tirof etish:

- Vuy, Ra’noxonni ochilib ketganini qarayla! Eri urushda yurgan xotingayam o‘xshamilla-ya?

Bu gapda Ra’noning tashqi qiyofasi *ochilib ketmoq* iborasi orqali e’tirof etilgan bo‘lib, bu o‘xshatish *gul kabi ochilgan, go‘zal* ma’nolarini ifodalaydi.

2) mulkka qaratilgan komplimentlar. Bunday komplimentlar inson egalik qiladigan barcha narsa bo‘lishi mumkin:

- Voy, muncha chiroyli! – u yonbosh tomondagi uyga qarab o‘ktam ovozda qichqirdi. – Oyi, manavini ko‘ring! Shokir akamga ayting, bayramga mengayam obersinlar!

Chiroyli sifati neytral so‘z bo‘lib, u inson, narsa-buyum, tabiat va boshqa tushunchalarga birdek ijobiy fikr bildirish uchun qo‘llaniladi. Ushbu gapda esa *chiroyli* sifati orqali Robiyaning atlas matosiga nisbatan kompliment bildirilgan. Shuni ta’kidlash joizki, komplimentlar nafaqat ijobiy fikrni, balki hayratni ham ifodalashi mumkin. Yuqoridagi misol esa bunga yaqqol dalil bo‘la oladi.

3) odamning qilgan ishini, qobiliyati, mahoratini e’tirof etish:

- Siz Husan aka, haqiqiy dehqonsiz. Yer ilmini yaxshi bilasiz.

Ushbu gapda *haqiqiy* so‘zi orqali adressantning dehqonlik mahoratiga tan berilmoqda. Ikkinchi gap esa *haqiqiy* sifatini izohlash, to‘ldirish maqsadida aytilgan.

4) aqliy salohiyatni e’tirof etuvchi komplimentlar:

- Bizdayam har bitta odam hisobliq! – dedi zakunchi qat’iy ohangda. – Tem bole Ra’noxondek savodli odam!

Savodli sifati inson aql-zakovatini e’tirof etuvchi so‘z bo‘lib, Ikkinchi jahon urushi davrida hamma o‘zbeklar ham xat-savotli bo‘lmagan. Shu sababli o‘qish-yozishni bilgan, hisob-kitobni tushungan insonlar alohida qadrlangan.

5) xulq-atvor, xarakter xususiyatlarini e’tirof etish:

– Marjaxon opang, ja mehribon chiqib qoldi, qizim, – dedi oyim meni tinchlantirib. – Issiq-sovug‘imdan xabar olib turibdi, buyam o‘zimning qizim-da!

Birinchi gapdagi *mehribon* so‘zi inson xarakterini ifodalovchi so‘z bo‘lib, u turlicha xususiyatlarga ega bo‘lsa-da, doim ijobiy ma’no bildiradi. Ikkinchi gap esa go‘yoki *mehribon* so‘ziga izoh sifatida aytilgandek. *Issiq-sovug‘idan xabar olib turmoq* iborasi *g‘amxo‘rlik qilmoq* ma’nosini ifodalaydi va bu xislat o‘zbek millatida alohida ulug‘lanadi.

6) boshqalar

- Birpas chidagin, yigitsanku o‘zing, giroysan-ku.

Yigit so‘zi o‘zbek tilida ko‘p ma’nolarni qamrab oladi, ya’ni er-yigitga xos bo‘lgan barcha ijobiy ma’nolarni o‘zida mujassam qiladi. Shu sababli *yigit* so‘zi mard, jasur, botir erkaklarga nisbatan qo‘llaniladi. Shuningdek, *giroy* ham ruscha so‘z bo‘lib, qahramon degan ma’noni bildiradi va botir, qo‘rqmas kabi barcha ijobiy xislatlarni aks ettiradi.

2. **Kompliment bildirish uslublari**

N.Miranda va H.Hamzaning keltirishicha, xitoy tilshunos olimi L.Ye komplimentlarni ifodalash uslubiga ko‘ra uchta strategik guruhga ajratgan[3]:

- Bevosita, ya’ni to‘g‘ridan-to‘g‘ri kompliment bildirish.

So‘zlovchi to‘g‘ridan-to‘g‘ri maqtash orqali adressantga hech qanday noaniqliksiz ijobiy fikrni aniq

[1] Elektron manba. Description of speech acts (CARLA, University of Minnesota): Research-based descriptions of six speech acts. https://carla.umn.edu/speechacts/compliments/american.html (05.10.2024).

[2] Sadikov E.T. Classification of compliments as speech acts and their basic characteristics in Uzbek and English, 2022.

[3] Miranda, N., & Hamzah. Gender differences in compliment strategies in social media interaction. E-Journal of English Language and Literature, 7(3), 2018. – pp. 374-382.

yetkaza oladi. Bunday komplimentlar odatda qisqa va sodda bo‘lib, adressantning tashqi ko‘rinishi, harakatlari yoki fazilatlarini bevosita tan oladi:

- Tabib bo‘lgani bilan ketmonni hammadan yaxshi uradi. Staxanovchi. Ammo qo‘liyam yengil. Lyuboy kasalni uch kunda tuzatadi.

Ushbu gapda adressantning yaxshi dehqon va tabib ekanligiga tan berilmoqda. O‘zbek tilida *qo‘li yengil* iborasi biron hunar egasining mahoratini e’tirof etish uchun qo‘llaniladi.

- Bilvosita komplimentlar.

Bunday komplimentlar nozikroq yoki yashirin tarzda ifodalanadi. Kompliment to‘g‘ridan-to‘g‘ri aytilmasa-da, adressant yetkazilgan xabarni ijobiy qabul qiladi va bunda ohang va konteks muhim ro‘l o‘ynaydi:

- Atlasni Zuhra kiysa yarashadi.

Ushbu komplimentda adressantning chiroyli qomatga ega ekanligi *yarashmoq* so‘zi orqali bildirilgan.

- Ra’noxon! Jon singlim! Sizdan boshqa kim eplaydi bu ishni?!

Bu gapda esa ritorik savol orqali «*Bu ishni sizdan boshqasi eplay olmaydi*» degan ma’no yashiringan.

- Majburiy yoki zo‘raki aytilgan komplimentlar.

Bunday gaplar eshitilishidan komplimentdek tuyulishi mumkin, ammo ular chin ma’noda kimnidir e’tirof etish uchun aytilmaydi. Ular samimiy bo‘lmaydi va ko‘pincha, adressant uni ijobiy qabul qilmaydi. Ba’zida bunday gaplar tanqid sifatida ham aytilgan bo‘lishi mumkin. Bunday komplimentlarda ham ohang, vaziyat va kontekst muhim ahamiyatga ega:


- Oqsoqol – malades! Hamma narsadan xabardorsiz-a?

- Geroyni otasiyam geroy bo‘ladi-da.


Asarni o‘rganish jarayonida komplimentlarning yo‘naltirilgan obyektiga ko‘ra, tashqi ko‘rinish, mulk, bajarilgan ish, qobiliyat, mahorat, aqliy salohat, xulq-atvor, xarakter hamda boshqa umumiy sifatlar uchun aytilgan turlari aniqlandi (1-jadval). Ular orasida insonning bajargan ishi, qobilyati va mahoratini e’tirof etish uchun bildirilgan komplimentlar sezilarli darajada ko‘p uchragan bo‘lsa, qahramonlar nutqida bevosita, ya’ni to‘g‘ridan to‘g‘ri aytilgan komplimentlarning soni bilvosita komplimentlarga qaraganda ancha ko‘p miqdorni tashkil qiladi (1-diagramma).

1-diagramma

1-diagramma. Kompliment turlarining samaradorligi



Kompliment bildirish uslublari



Natijalar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek millati insonlarning mulkiy boyliklarini kamroq e’tirof bilan tilga olishga moyil bo‘lib, ular uchun insonlarning aqliy salohiyati, qobilyati, xulq-atvori ko‘proq ahamiyatga egadir. Shuningdek, o‘zbek xalqi odamlarning tashqi ko‘rinishi bilan bog‘liq sifatlarni ham ulug‘lashi aniq-

landi. Bundan tashqari, komplimentlarning bevosita ifodalanishi muloqot madaniyatida o‘zbek millatining ochiq va oshkora ekanligining yaqqol isbotidor.

Maqolada o‘zbek adabiyotining yirik namoyandasi O‘tkir Hoshimovning «Ikki eshik orasi» asari misolida o‘zbek tilida komplimentlarning lingvopragmatik xususiyatlari o‘rganildi. Tadqiqot davomida o‘zbek tilida komplimentlar insonlarning tashqi ko‘rinishi, mulki, qobiliyati, mahorati va xarakter xususiyatlari kabi turli obyektlarga qarata ifoda etilishi yana bir bor o‘z aksini topadi. Maqolada o‘zbek muloqot madaniyatida bilvosita komplimentlarga nisbatan bevosita komplimentlar ko‘proq uchrashi, insonlarning yutuq va fazilatlarini ochiq ifodalashga moyilligi o‘zbeklarga xos milliy xususiyat sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, o‘zbek xalqining mulkiy boylikdan ko‘ra, insoniy fazilatlarni ko‘proq e’tirof etishga moyilligi, insonlarning ma’naviy qadriyatlari va yaxshi fazilatlariga qarata ijobiy fikr bildirilishi o‘zbek muloqot madaniyatidagi o‘zaro hurmat, samimiyat va e’tiborning muhimligini ko‘rsatadi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, komplimentlar o‘zaro munosabatlarni mustahkamlovchi nutqiy etiketning muhim shakli bo‘lib, ular millatning madaniy qadriyatlarni va insonlarning ijobiy xususiyatlarini o‘zida namoyon qiladi.

Rezyume. Ushbu maqolada o‘zbek adibi O‘tkir Hoshimovning «Ikki eshik orasi» romanidan keltirilgan misollarga asoslangan holda o‘zbek tilida kompliment nutqiy etiketining o‘ziga xos xususiyatlari, jumladan, o‘zbek muloqot madaniyatida komplimentlarning qo‘llanilish o‘rni, obyekti hamda uslublari ilmiy tahlil qilinadi.

Resume. This article scientifically analyzes the unique features of the speech act of compliment in the Uzbek language based on examples from the novel «Between Two Doors» by Uzbek writer Utkir Khoshimov. It explores the role, objects, and ways of paying compliments in Uzbek communication culture.

Резюме. В данной статье на примере романа узбекского писателя Уткира Хошимова «Между двух дверей» научно анализируются уникальные особенности речевого акта комплимента в узбекском языке. Исследуются роль, объекты и способы выражения комплимента в узбекской коммуникативной культуре.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2024; 11
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

«DEVONU LUG‘OTIT-TURK» ASARIDA QO‘LLANGAN TAOM NOMLARINING QIYOSIY TADQIQI

Muhsinjonova Shirinoy Asliddin qizi,
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
tayanch doktoranti

Lug‘atshunoslik sohasi keng qamrovga ega bo‘lib, uning shakllanish tarixi qadimgi davrlarga borib taqaladi. O‘tmishda yaratilgan lug‘atlar turli mavzularni qamrab olgan bo‘lsa-da, biroq ulardagi so‘zlarning joylashish tartibi ma’lum qoidalarga bo‘ysunmagan. Lug‘at muallifi uni yaratishda o‘ziga xos uslub, shakl-shamoyillarga amal qilgan. Shu sababli ham ularda so‘zlarni topish borasida ba’zan qiyinchiliklar ham yuzaga kelgan. Ana shunday kamchiliklardan xoli, turkiyshunoslikning qimmatbaho manbasi sifatida yaratilgan Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘otit-turk» asari devon tartib berishda o‘ziga xos